

**ABU HOMID AL-G‘AZZOLIY TASAVVUFİY TA’LIMOTİNİNG TEOLOGİK, İJTİMOİY
- FALSAFİY MOHIYATI**

Muxammadsodiq Lapasov

O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi

Islamshunoslik yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Maqolada imom G‘azzoliyning o‘z asarlarida islomning yirik teologi sifatida gavdalanishi, faylasuflarga munosabati, sababiyatga munosabati, ortodoksal islomga mo‘tadil tasavvufni olib kirishi, omma va tanlanganlar haqida qarashlari aks etadi.*

Kalit so‘zlar: *Alloh, G‘azzoliy, falsafa, sufiy, fiqh, islam, teolog.*

Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliy islam tafakkuri olamida yirik ilohiyshunos, faylasuf va faqix (islom huquqshunosi) olim sifatida tanilgan va mashhur bo‘lgan. U 1058 yilda Xurosonning Tus shahri (Janubiy Eronning hozirgi Mashhad shahri)da, ipak yigiruvchi (g‘azzol) xonardonida tavallud topadi. Ayrim fikrlarga ko‘ra, donishmandning bolalik yillari G‘azzola qishlog‘ida o‘tgan. [1:84]. Hayoti davomida ko‘plab musulmon shaharlarida bo‘lgan. Vafotidan bir oz oldin tug‘ilib o‘sgan yurti Tus (Xuroson)ga qaytadi, o‘z qishlog‘ida xonaqoh tashkil qilib, so‘fiylik hayot tarzidan muridlariga saboq beradi va shu erda 1111-yili 19-dekabrda vafot etadi. Abul-G‘ofur Forisiyning so‘zlariga qaraganda Imom G‘azzoliyning bir necha qiz farzandlari bo‘lgan.

Islomshunoslardan ta’kidlashicha, Imom G‘azzoliy haqiqatan ham o‘z asarlarida an'anaviy (tradisional), aqliy (rasionalistik) va mistik elementlarni uyg‘unlashtirib, islomni yana uyg‘otdi, [2:26] tikladi desak bo‘ladi. G‘azzoliy ta’limotining asosiy qoidalari sababiy bog‘lanishda bo‘lib, uning kalomga, yoki falsafaga yoki fiqhga tegishli bo‘lishidan qat’iy nazar, bu erda har xil holatda gunohning me’yori va hadlari to‘g‘risidagi rasmiylashtirilgan ta’limotni inkor qiladi. — Shunday kishilar guruhi borki, ular o‘z sa’y-harakatlarini fiqhning sababiy har xil holatlarini o‘rganish bilan chegaralaydilar. Shu maqsadga yo‘naltirilgan bilimlarni ilm, fiqh, mazhab degan nomlar bilan atab, ularni ham diniy fan deb o‘ylaydilar, deb yozadi G‘azzoliy. Shuni ta’kidlash kerakki, Imom G‘azzoliyning idealistik falsafiy tizimi uni “Sharqning buyuk aql sohibi” deb hisoblagan nemis klassik falsafasining asoschisi G.F.Gegelga ham ilhom bag`ishlagan.

Imom G‘azzoliy ijodida va uning falsafiy qarashlarida asosan teologik mohiyat sezilib tursa ham uning teologiyadan falsafiy dunyoqarashga o‘tishi aniq kuzatiladi. Teologiya va falsafa bilan shug‘ullaverib, G‘azzoliy e’tiqodni irrasional (aqldan tashqari) tushuncha sifatida hamda falsafani rasionalistik qurilmalar sifatida bir-biri bilan qo‘shilishi mumkin emas degan xulosaga keldi. Bu esa olimni chuqur ruhiy va ma’naviy tushkunlikka soladi. U mantiqiy isbotlar asosida emas, intuisiya — g‘ayri ixtiyoriy his vositasida borliqqa monistik qarash vakillari bo‘lgan so‘fiylarning g‘oyalarini qo‘llab-

quvvatlay boshladi. G'azzoliyning falsafiy tizimi tasavvuf monoteizmining falsafiy-teologik ifodalanishi bo'lib, uni donishmand an'anaviy-ortodoksal (shar'iy) islom bilan birlashtirdi, «yarashtirdi». G'azzoliy asarlarida atrof-tevarak muhit, olam qonuniyatlarini bilish imkonini beradigan fanlarning rasional asosidagi mulohazalar aniqligini inkor etmasa ham oliy haqiqatni, Allohnin aql bilangina bilish imkoni yo'qligi to'g'risidagi g'oya rivojlantirildi.

Allohnin jazva vositasida, uni his qilayotgan har bir so'fiy uchun ichki kechinma sifatida paydo bo'ladigan zavq-shavqdan mast bo'lish holati va faqat O'zining, Allohnin yordami orqaligina bilish mumkin, – deb hisoblaydi G'azzoliy.

Imom G'azzoliy Bag'dodni tark etkandan so'ng (1095), ya'ni o'n yil davomida butun vujudini Allohgaga xizmat qilishga bag'ishlaydi. U tunu-kun Yaratganni mushohada va tafakkur qilish orqali erishgan natijalarini, kashflarini shunday izohlaydi: —...O'n yil shunday davom etdi. Hilvatda o'kazgan yillarimda ko'z o'ngimda shunday narsalar namoyon bo'ldiki, ularni na sanab va na tartiblab bo'ladi. Oydinlik kiritib faqat shuni ayta olaman-ki, men uchun aniq ayon bo'lgani – Allah yo'lidan adashmay ketayotganlar, aynan so'fiylar ekan. Ularning hayot tarzi – eng yaxshi hayot tarzi, ularning yo'li – eng to'g'ri yo'l va ularning axloqi – eng yaxshi axloqdir. Ular haqida yana ham ko'proq aytishim mumkin: Agar aqli insonlarning aqllarini, donishmandlarning donoliklarini va ilohiy qonunlar bilimdonlarining bilimlarini bir joyga jamlab, so'fiylarning hayot tarzi va axloqiga biror-bir jiddiy, ijobiy o'zgartirish kiritish maqsad qilinsa, ular buni uddalay olmas edilar.[3:145]

G'azzoliyning tasavvuf tizimi uning asarlarida, shuningdek, uning eng batafsili «Ihyo al-ulum ad-din» (—Diniy ilmlarning tirilishi) asarining 4 - ruknida bayon qilingan (har bir rukn 10 tadan kitobni qamrab oladi). G'azzoliy umuman taqvodorlik tarafdori. U zohidlikni ruhni poklash, ruhiy hayotga tayyorgarlik vositasi deb biladi. G'azzoliyning ta'kidlashicha ilohiy yo'l to'qqizta asosiy bosqichdan — maqomat, suluk manzillaridan iborat. Ulardan har biri - xalos qiluvchi xususiyatlardan biri – munjiyat (qutulish yo'li) egasi bo'lish bilan tavsiflanadi: 1) tavba, 2) sabr, 3) shukr, 4) xavf, 5) rijo, 6) faqr, 7) tavakkul, 8) zuhd, 9) Allohgaga mistik muhabbat bosqichlarini aniqlaydi.

Mazkur asarining —tafakkur kitobida asosan inson tafakkuri orqali Allah taolonning zoti va sifatlari, behudud qudratini anglash, U yaratgan olamlar, ashylolar, jonzotlar, alalxusus, insonning o'z-o'zini mushohada qilib bilishi hamda o'z burchi va ma'suliyatini anglashi ochib berilgan. I.P.Petrushevskiyning yozishicha, mo'tadil (monistik) tasavvufning ijmo' tomonidan e'tiqod deb tan olinishida Imom G'azzoliyning xizmati katta, undan ham muhimi mo'tadil tasavvuf islomiy dunyoqarashga chuqur kirib bordi va asta-sekin islomning o'zi so'fiyona g'oyalar bilan to'lib-toshdi.

Abu Homid G'azzoliy diniy ongning o'z mohiyatini anglashda hal qiluvchi asosiy tushunchasi islom emas, iymon va kimki unga ega bo'lsa o'sha e'tiqodli mo'mindir deb hisoblaydi. Iymon Qur'on karimda e'tibor berilgan muammolarning eng muhimidir. Bu ilohiy kitobda u to'g'rida 800 ga yaqin marta gapiriladi. Islom esa, ikkinchi navbatdagi,

nisbatan kamroq uchraydigan tushuncha. Qur’onda u sakkiz marta tilga olingan xolos. Shulardan kelib chiqib, u o‘z falsafiy-teologik ta’limotini rivojlantirdi. Ma’lumki, Imom G‘azzoliy hayoti va ijodi davrida mutakallimlar, mo’taziliylar va faylasuflarning har xil shakllari o‘rtasida keskin kurash avj olgan edi. Aynan shu paytda Imom G‘azzoliy islom teologiyasi uchun mardona kurash olib bordi.

Imom G‘azzoliy falsafani o‘zlarining g‘ayridiniy aqidalarini sharhlash, oqlash va targ‘ib qilish hamda shariat qoidalari va arkonlarini inkor etishga, uni dinga qarshi qurolga aylantirishga intilayotganlarga zarba berish uchun falsafaga qarshi chiqdi. Shu munosabat bilan G‘azzoliy o‘zining muhim asari «Taxofutul falosifa» (Faylasuflarning ixtiloflari)da yozadi «Bu nodon odamlar guruhida kamaqillilik tomirining urishini oshkor etib, men o‘tgan faylasuflarning adashishlari va aqidalaridagi tartibsizliklarini isbotlash, ularning ilohiyot haqidagi qarashlarida mavjud ziddiyatlarni ochib tashlashni o‘z vazifam deb bildim».

Taniqli ingliz islomshunosi Montgomeri Uott manbalar va eng yangi tadqiqotlarning tahlili asosida Imom G‘azzoliyni yorqin siymoli ilohiyotchi sifatida tavsiflaydi va uni falsafa fani va diniy aqidalarni o‘zida uyg‘unlashtirgan bir ravon tizimni yaratgan mutafakkir deb hisoblaydi. Islomning yirik ilohiyshunosi sifatida

G‘azzoliy «Sof birodarlar» jamiyati va "ismoiliylar"ning din faqat bemor aqllar uchungina dori-darmon bo‘la oladi xolos, unda savodsizlik dog‘i bor, adashuvlar bilan qorishib ketgan, uni sog‘lom aql ozuqa oladigan mag‘rur falsafiy donolikdan boshqa hech narsa bilan yuvib, tozalab bo‘lmaydi, deb hisoblaydigan mafkurasini tanqid qilgan. Mana shuning uchun ham Imom G‘azzoliy astoydil falsafa bilan shug‘ullanib, o‘zining «Maqosid ul-falosifa» kitobini yozdi.

G‘azzoliy o‘zining barcha diniy qarashlarini islom e’tiqodi bilan muvofiqlashtirishga intilgan. Ularning mag‘zini Qur’onning biror-bir sub’ekt tomonidan yaratilmaganligini va abadiy ekanligini isbotlash tashkil etgan. Buyuk ilohiyotchi tomonidan islom dinining kalom ta’limoti oxirigacha shakllantirildi. Uning asosiy g‘oyalari ukasi Abul Fotih Ahmad, Moturidchilar Umar an-Nasafiy (1068-1142) va at-Taftazoniy (vaf.1391)lar tomonidan davom ettirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Islom tasavvufi manbalari. – T.: — O‘qituvchi, 2005.
2. Po‘latov H, Mamatov M. Tasavvuf tarixidan lavhalar.T: Mavoraunnahr, 2011.
3. Избранные произведение мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока XI-XIV вв. М., 1961. Газали-Автобиографический трактат.
4. Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV. – Л.: изд-во. ЛГУ, 1966.
5. Sayyid M.H. Islom tafakkuri tarixidan. – T.: — Minhoj, 2003.